

## YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI

*Alisherova Shohida Muhammadjon qizi*

*Namangan Davlat Universiteti.*

*Pedagogika va psixologiya 3-kurs talabasi*

*Qayumova Dilafruz Dilmurod qizi*

*Namangan Davlat Universiteti 3-kurs*

*Pedagogika va psixologiya 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada “yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari” tushunchalari mohiyati ochib berilgan. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarbligi va ma’naviy bo’shliqni kitob o’qish, ilm olish orqali to’ldirish, ko’rsatib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** kompetentlik, mediasavodxonlik, audiovizual ma’lumotlar, media, kompyuter, shaxsga oid ma’lumotlar, axborot, gazeta, jurnal, radio, televideniya, kompetentlik tushunchasi.

### ПРИЧИНЫ И ФАКТОРЫ ВИРТУАЛИЗАЦИИ И ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация:** В статье раскрывается сущность понятия “Причины и факторы виртуализации в жизни молодежи”. Показана важность защиты молодежи от информационных атак в интернете и социальных сетях, заполнения духовного пробела чтением и обучением.

**Ключевая слова:** компетент, медиаграмотности, аудиовизуальная информация, компьютер, СМИ, информация, газета, журнал, радио, телевидения.

### THE COUSES AND REASONS OF VIRTUALITY IN LIFE OF YOUTH

**Annotation:** the article will essene the causes and reasons of being virtuality in life of youth. Also it contains the importance of avoiding youth from information attacks or Internet and Social media and full fulfillment of shortage morality.

**Key words:** competence, media, audiovisual information, media, computer, personal information, information, newspaper, magazine, radio, TV, the gist of competency.

Zamon taraqqiyoti shunday rivojlanish bosqichiga ko’tarildiki, bunday madaniy o’zgarishlar sur’ati, shaxsdan juda qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qabul qilish, yangi faoliyat usullarini o’zlashtirish hamda kasbiy va ijtimoiy muammolarning yechimini o’z vaqtida topish malakasini talab qiladi. Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy va axborot-kommunikatsiya sohalarida yuz berayotgan tizimli o’zgarishlar kishilar hayotida ham o’z tasirini ko’rsatmoqda. Mazkur fikrlar

pedagogik oliy ta’lim muasasalari faoliyatiga ham bevosita daxldor bo’lib, ta’lim-tarbiya tizimini joriy etish kelajakda o’qituvchi bo’lish uchun bugun oliy o’quv yurtlarida kasb sirlarni egallayotgan talabalarni axborot xurujlaridan saqlash va virtual hayotga kirib ketmaslik, internet madaniyati va undan to’g’ri foydalanish haqida tushunchalar berib borilmoqda.

[Virtual dunyo o’zi nima? Virtual dunyoni virtual makon deb ham ataladi. Bu shaxsiy avatar yaratishi, virtual dunyoni (internetni)bir vaqtning o’zida va mustaqil ravishda o’rganishi, uning faoliyatida ishtirok etishi va boshqalar bilan muloqot qilish mumkin bo’lgan ko’plab foydalanuvchilar tomonidan to’ldirilgan, kompyuter simulyatsiya (ruschadan olingan bo’lib o’zini yolg’ondan biror ko’yga solish, mug’ombirlik qilish) qilingan muhit hisoblanadi.]<sup>1</sup>

Virtual makonda hayot kechirish sizni biz o’ylagandan ham ko’ra xavfliroqdir. Masala shu qadar dolzarb va murakkabki, uni so’zsiz muammo darajasiga ko’tarsa bo’ladi. Nima uchun? Bugun dunyoda har bir office xodimi kuniga o’rtacha hisobda 5-6 soat vaqtini kompyuter oldida o’tkazadi. Telefon so’zlashuvlari, televizor, internet va kompyuter o’yinlarini qo’shib hisoblaganda, bu raqam ikki baravarga ortadi. Demak, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish uchun kunning teng yarmini sarflar ekanmiz. Yoshlar orasida esa mobil telefonlardan keyingi o’rinda internet eng ommaviy aloqa vositasi ekanini isbotlashning hojati ham bo’lmas kerak. Sotsiologik tadqiqotlarga ko’ra, yer yuzi aholisining 22 foizi internetdan har kuni foydalanadi. Hozir global tarmoqda eng ko’p ko’riluvchi yuzta veb-saytning yigirmatasi ijtimoiy tarmoqlar turkumiga kiradi, yana oltmishtasi u yoki bu jihatdan ijtimoiy mazmundagi saytlardir. Internet foydalanuvchilarining 78 foizi (aksariyat yoshlar albatta) ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarni haqqoniy va xolis axborot deb hisoblaydi. Ko’p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o’tkazuvchi insonlar ulardan, asosan, electron xat xabarlarini qabul qilish uchun foydalaniladi. Vaholangki, shaxsiy yozishmalar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlardagi kabi qisqa matnli xabarlar kerakli axborotning atigi 7 foizini yetkaza oladi xolos. Ulardagi ma’lumotlarning 90 foizi esa mutlaqo befoyda axborotlardir. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda oz-ozdan vaqt o’tkazganda ham inson bunday mashg’ulotdan deyarli hech qanday foyda olmaydi.

[Faol foydalanuvchilar soni bo’yicha hozir dunyoda “G’asebook” ijtimoiy tarmog’i yetakchilik qilmoqda. Uning bir oylik auditoriyasi yeti yuz million kishidan ortiq. Mamlakatimizda mazkur ijtimoiy tarmoq 128 ming nafar foydalanuvchisiga ega bo’lgan (2012 yil fevral holatiga ko’ra). O’zbekistonlik internetdan foydalanuvchilarning 2,5 millioni [www.odnoclasnici.ru](http://www.odnoclasnici.ru) saytida ro’yxatdan o’tgan. “Odnoklassniki” 1995- yilda Rendi Konrad tomonidan asos solingan zamonaviy ko’rinishdagi birinchi ijtimoiy tarmoq Slassmates.somning rus tilidagi nusxasi

hisoblanadi. Qolaversa, u hududiy ijtimoiy tarmoq bo’lib, hamdo’stlik mamlakatlari auditoriyasi uchun mo’ljallangan.]<sup>2</sup>

[Virtual olamdagi hayot- yoshlarni haqiqiy dunyodan chalg’ituvchi, miyani o’chiruvchi vositadir.]<sup>3</sup> Cambridge universiteti talabalarining intervyularini ko’p kuzataman. Aynan virtual hayot haqidagi intervyu meni o’ziga jalb etdi. “ Men virtual hayotga kirib ketgandim. Ota-onam, do’stlarim menga ikkinchi o’rin bo’lib qolgan edi. Men kunimning 14 soatini ijtimoiy tarmoqda o’tkazardim va salomatligimdan ajraldim” deydi talaba. Haqiqatdan ham virtual hayotga kirib ketgan har qanday inson ko’z nuridan ajraladi. Vaqtida ovqatlanmasligi sababli oshqozon- ichak kasalliklariga yo’liqadi va insonlar bilan kam so’zlashadi, jamoa davralariga borganda ularga qo’shila olmaydi, o’zini yolg’iz sezadi, depressiya uchraydi.

Hozirgi kunda yoshlar hayotida virtual o’yinlar asosiy ro’l o’ynamoqda. Agar virtual o’yinlar sizning kasbiy faoliyatingiz bo’lmasa, ularni hayotingizdan chiqarib tashlang. Virtual o’yinlar natijada yoshlar ongida ba’zibir o’zgarishlar sezilmoqda. Xotiraning asosiy pasayishiga sabab nimada deb o’ylaysiz? Men aynan virtual hayotga kirib ketishda deb o’ylayman. Sababi biz kompyuter, telefon, notebook, planshetlardan foydalanamiz. Ayrim hollarda esa televizorda uzoqdan uzoq kino ko’ramiz. Bularning hammasi nur hisoblanadi va insonning ongiga, ko’ziga, markaziy asab sistemasiga kuchli ta’sir qilib saraton kasalligiga olib boryapti. Tibbiyot hodimlarining fikriga ko’ra dunyoda saraton kasalligiga chalinish oldingi yillarga qaraganda 20 foizga o’sgan.



Virtual hayotning yaxshi tomonlari ham ko’p albatta agar undan me’yor darajasida foydalansak.

1. Online xaridlarni amalga oshiramiz (online shop)
2. Arzon narxdagi tovarlarni qidirib topishimiz mumkin
3. Global dunyoda boshqalar bilan erkin bog’lanamiz.
4. Online darslarda qatnashamiz.
5. IT orqali pul topish
6. Turli sohalarda har qanday ma’lumot topish
7. TOP universitetlarga grand yutish.
8. Osonlik va tezlik bilan narsalarga buyurtma berish, a’zo bo’lish.

Sanasam foydali tomoni ko’p albatta, lekin shunga qaramay salbiy tomonlari ham mavjud:

- 1.Ko'z og'rig'i
- 2.Turli xil o'yinlar orqali pul yuqotish.
- 3.Salbiy, yomon ma'lumotlarning tarqalishi.(diniy oqimlarga kirib ketish)
- 4.Noto'g'ri ma'lumotlar
- 5.Vaqt sarflash
- 6.Urushga da'vat etuvchi materiallar
7. Hakkerlik, virus yuqtirish
- 8.Sog'lik bilan muammolar: semirish
- 9.Depressiya
- 10.Bolalar uchun xavfli bo'lgan xabarlar.( o'z joniga qasd qilish video, xabarlarini o'qish va yoshlar orasida tarqalishi.)

Yoshlar hayotida vertuallashuv sabablari:

Ota-onalarning farzandlarini nazoratsiz qoldirishi, ularni turli to'garaklarga band qilmasligi, kitobxonlikni yoshlar orasida targ'ib qilinmasligi... Hozirgi kunda kitob o'qishdan ko'ra ijtimoiy tarmoqda o'tirish ommalashgan. Sababi: Yoshlar orasida internetdan foydalanish madaniyati tushunchasining yo'qligi va xavf- xatarlar haqida bilishmaydi. Agar ilm olish, kitob o'qishning insonlarga foydasini bilishganda edi, virtual hayotga kirib ketish kamayardi. Kitob o'qigan insonning zehni o'tkirlashadi, fikrlashi kengayadi. [Zero, ilm olish bilan inson Alloh taoloning ne'matlariga shukur etishni niyat qiladi. Kim ilmga xizmat qilsa, ilm unga barchani xizmatchi qilib qo'yadi.]<sup>4</sup>

Ijtimoiy tarmoq –millionlab insonlarni o'z domiga tortuvchi ulkan mashinadir. U odamzodni programlashtiryapti. Ya'ni bizni muayyan xatti- harakatlarni bajarishga undaydi. Unda yaxshi-yomon, to'g'ri-egri kabi axloqiy mezonlar mavjud emas. Masalan: muayyan ijtimoiy tarmoqlarda bironi kalaka qilib, sha'niga nomunosib gaplarni aytish, behayo suratlarni joylashtirish... normal hodisa sifatida qabul qilinishi mumkin. Bugungi kunda AQSHda qayd etilayotgan har beshta ajrimdan bittasi ijtimoiy tarmoqlar sabab bo'moqda. Sankt-Peterburg psixoanalitik markazi mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari esa ajrashgan oilalarning 15 foizi anashu ijtimoiy tarmoqlar tufayli bo'lganini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қамбаров М. Талабаларни мустақил фикрлаш маданиятини ривожлан-тириш: Монография Наманган. – Аржуманд медиа, 2021
2. Н.Муратова, Э. Гризл, Д. Мирзахмедова Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги: Тошкент: Baktria press, 2019. - 112 б
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014

4. Козырева О.А. Компетентность современного учителя: современная проблема определения понятия Стандарты и мониторинг в образовании. –2004. – № 2. – С.48-51.
5. Kubey, R. (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. *Journal of Communication* (Winter), pp.58-69.
6. Мигранова Е.А., Позилова Ш.Х. Касбий педагогик фаолиятга кириш. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – 200 б.
7. Универсальная журналистика: опыт проектного обучения. Учебное пособие под общей редакцией Л. Шестерёнкиной. — Челябинск, 2018.
8. Muratova N. New media audience: psychological aspects and transformation of the social role. *Media, Human, Society in Asia. Korea & Uzbekistan*. Seoul, South Korea, April 21–26, 2019. — P. 107–113